

O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SIYOSAT

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot
fakulteti, Mintaqaviy iqtisodiyot, 2-kurs,
Ochilboyeva Sayyora Omil qizi.*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot
fakulteti, Mintaqaviy iqtisodiyot, 2-kurs,
Chinorova Shahodat Mansurjon qizi.*

Anotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi yuritilayotgan moliyaviy siyosat qay darajada samarali ekanligi yoritib berilgan. Hozirgi moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari nimadan iboratligi, unga mos islohotlar qanday bo'lishi kerakligi va keying davrlarda qanday moliyaviy islohotlar yuritilishi qanday oqibatlariga olib kelishi haqida batafsil malumotlar tadbiq qilingan.

Kalit so'zlar. Moliyaviy siyosat, strategiyalar, budjet, soliq, pul, baho, investitsiya, kredit, boj, YaIM.

Kirish. O'zbekiston respublikasida olib boriladigan moliyaviy siyosatnin ahamiyati va natijalarini o'rganish iqtisod sohasiga bog'liqdir. O'zbekiston respublikasining 2017-yili tuzilgan va 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi", 2022-2026 – yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026" va 2030-yilgacha tuzilgan "Yangi O'zbekiston-2030" chora-tadbirlari ham aynan respublikada amalga oshirilgan moliyaviy va iqtisodiy siyosat natijasidir.

Yigirmanchi yuz yillikda jamjyat taraqqiyotida davlatning ahamiyati to'g'risidagi masala bo'yicha moliya nazariyasining asosiy yo'nalishlari mumtoz burjuaziya siyosiy iqtisodchilari A.Smit (1723-1780) va D.Rikardo (1772-1823) hamda ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946) va ularning izdoshlari tomonidan

ilgari surilgan.

Sotsialistik davlatning mohiyati va vazifalari haqidagi markscha-lenincha nazariya sovet davlati moliyaviy siyosatining asosiy prinsipini ya'ni moliyaviy markazlashtirishni belgilab berdi. Sovet davlatida va ijtimoiyistik orientatsiyada bo'lgan barcha mamlakatlarda moliyaviy siyosat K.Marks (1818-1881) va VI.Leninning (1870-1924) nazariy konsepsiyalari ta'sirida vujudga keldi. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati zamonaviy nazariyalar ostida bo'lib, bu nazariyalar amalda tartibga solish tizimining konvergentsiyasidan iborat. Shunga mos ravishda ba'zi davlatlar davlat tomonidan tartibga solishning ham keynschilik hamda neokeynschilik tizimi elementlaridan foydalanadilar.

Asosiy qisim. Moliyaviy siyosat o'zi nima? Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo'lishi jiddiy ahamiyatga ega emas. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar borasidagi mustaqil faoliyatidir. Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qisimlari:

1. Budget siyosati;
2. Soliq siyosati;
3. Pul siyosati;
4. Kredit siyosati;
5. Baho siyosati;
6. Investitsion siyosat;
7. Ijtimoiy moliyaviy siyosat;
8. Boj siyosati;

Budget siyosati budgetda to'planadigan yalpi ichki mahsulot hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlari munosabatlarida, budget xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi budgetlar o'rtasida xarajatlarni

taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, budget defitsitini qoplash yo'llarini aniqlashda ifodalanadi. O'zbekistonda yuritiladigan budget siyosatida YaIMni 100 mlrd. AQSH dollariga yetkazish, soliq tizimini takomillashtirish, davlat qarzlarini minimallashtirish va daromadlarni xarajatlardan oshirish maqsad qilingan.

Soliq siyosati davlat moliyaviy siyosatining eng muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonning 90% daromadi aynan soliqlardan tashkil topgan. Hozirda davlat tomonidan belgilanga 9 ta asosiy soliq mavjud, bular: JSHDS, QQS, ijtimoiy soliq, aksiz soliq, foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mamlakatda keying asosiy siyosat bu pul siyosatidir. O'zbekistonda pul siyosatining samarasizligi sababi fuqarolarning davlat banklaiga nisbatdan ishonchi yo'qligi sababli katta miqdordagi pullarini depozitlarda emas "ko'rpacha tagida" saqlashadi. Oqibatda mamlakatda pul oqimi pasayadi va markaziy bank majburan yangi pul emissiya qiladi. Natijada mamlakatda inflyatsiya darajasi yuqorilab ketadi.

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning bir yo'nalishi hisoblanib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning kredit tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit siyosatining ahamiyati uning foiz stavkasida. Foiz stavkasi darajasi ortishi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan:

- Olingan kreditlar qaytarilmaydi;
- Ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida qimmatchilikka uchrash mumkin;
- Kredit oluvchilar faoliyati rentabilligi pasayishi sababiga soliq to'lovchilar qisqarib ketishi mumkin;
- Mamlakatda ishlab chiqarish miqdori kamayib ketishi mumkin;

Mamlakatda kreditlar foiz stavkasi kamayishi tadbirkorlik faoliyatlarini rag'batlantiradi. Aholida kredit olishga moyillik ortadi.

Moliyaviy siyosatning yana bir tarkibiy qismi bu baho siyosati. Baho

siyosati monopol tovar va xizmatlar bahosi va ta'rifning o'zgartirilishi orqali ifodalanadi. O'zbekistonda Yer osti boyliklari, suv havzalari, temir yo'llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlarining yagona sotuvchisi bu davlat hisoblanadi. Ushbu tarmoqlar tovarlari bahosi ortishi milliy xo'jalikning barcha sohalarida narxlarning oshishiga olib keladi. Shu boisidan baho siyosati iqtisodiyotni tartibga solishda muhimm ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya siyosati ham mamlakatda ahamiyatga ega siyosat ekanligini ko'rib chiqamiz. Investitsion siyosat eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlar va imkoniyatlar yaratish bo'yicha tadbirlar yig'indisidan tashkil topgan. Investitsiya siyosatining asosiy vazifasi mamlakatga tashqi investorlar orqali zamonaviy resurlarni kirib kelishini va davlatga xorijiy kapitallarning kirishini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy-moliyaviy siyosat qonunga muvofiq mamlakat aholisining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq. Hozirda bu siyosat o'z navbatida, nafaqa siyosati, immigratsiya siyosati, aholining ayrim ijtimoiy guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati singari sohalarni o'z ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy yo'nalishi sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir bo'lagi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va boj yig'implari tovar va xizmatlarning bahosiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usuliga ham ega bo'lgan bo'ladi.

Xulosa. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga yuz tutar ekan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi, moliya va moliyaviy munosabatlarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi. Belgilangan strategik vazifalar davlatning taktik chora-tadbirlari asosida bajarila boshlandi. Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarur. Xarajatlar moliya resurslarining ko'paygandagina o'sishi mumkin. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni

moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga o'z daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Lexs.uz
2. A. V. Vahobov, T.S. Malikov. Toshkent-2012.
3. Norma.uz